

**XALQ TA'LIMI TIZIMIDAGI MUASSASALARNING STATISTIK
MA'LUMOTLARINI TAQQOSLASH**

Sobirov Shaxzod Ozod o'g'li

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil tadqiqotchisi

shaxzd_s97@mail.ru

Annotatsiya:

Tadqiqotda 2010–2023-yillarda O'zbekiston xalq ta'limi tizimidagi umumta'lim muassasalari, o'qituvchilar va o'quvchilar sonining dinamikasi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bu davrda maktablar soni 7,3 %, o'qituvchilar 28,6 %, o'quvchilar esa 48 % ga oshgan. 2016–2024-yillarda nodavlat maktablar soni 11 barobarga ko'paygani ta'lim tizimining diversifikatsiyalashayotganidan dalolat beradi. Olingan natijalar ta'lim siyosatini ilmiy asosda takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xalq ta'limi tizimi, umumta'lim muassasalari, statistika, ta'lim islohotlari, inson kapitali, ta'lim sifatini oshirish, nodavlat maktablar, pedagogik salohiyat, raqamli transformatsiya, ta'lim siyosati, hududiy tahlil, innovatsion ta'lim, demografik omillar, ta'lim infratuzilmasi.

Introduction

KIRISH

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida ta'lim tizimi, xususan, xalq ta'limi sohasi mamlakatning intellektual, texnologik va madaniy salohiyatini shakllantiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishi, mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda innovatsion iqtisodiyotga o'tishda ta'lim tizimining samaradorligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillaridan buyon ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish va ijtimoiy ehtiyojlarga mos modernizatsiya qilishga qaratilgan qator davlat dasturlarini amalga oshirmoqda. So'nggi yillarda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Raqamli ta'lim" konsepsiyasi hamda "Yangi O'zbekiston maktabi" tashabbusi doirasida ta'lim infratuzilmasini kengaytirish, o'qituvchilar malakasini oshirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish bo'yicha izchil ishlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, xalq ta'limi tizimining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, uning hududlar kesimidagi rivojlanish darajasi, o'qituvchilar va o'quvchilar soni, moddiy-texnik bazasi hamda nodavlat sektorning ta'lim tizimidagi ishtirokini baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalari soni, o'qituvchilar va o'quvchilar miqdori sezilarli o'sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 2023-yilda respublika bo'yicha umumta'lim muassasalari soni 10 yildan ortiq davrda o'rtacha 7 foizga, o'qituvchilar soni esa 2010-yilga nisbatan 28,6 foizga oshgan. Shu bilan birga, 2016-yildan boshlab nodavlat umumta'lim muassasalari faoliyatining kengayishi kuzatilib, 2023–2024 o'quv yiliga kelib ularning soni 295

taga, o'quvchilar soni esa 64 ming nafardan oshgan. Bu esa ta'lim sohasida davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi.

Biroq statistik tahlillar hududlar o'rtasida muayyan tafovutlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Masalan, Toshkent shahri va Farg'ona viloyatlarida o'sish sur'atlari yuqori bo'lsa, ayrim viloyatlarda (Qoraqalpog'iston, Xorazm, Toshkent viloyati) umumta'lim muassasalari sonining qisqarishi yoki sekin o'sishi kuzatilgan. Bu holat ta'lim resurslarini hududlar kesimida muvozanatli taqsimlash, pedagog kadrlar bilan ta'minlash va ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish zaruratini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, xalq ta'limi tizimining ilmiy tahliliga, mavjud statistik ma'lumotlar asosida rivojlanish tendensiyalarini aniqlashga, hududlararo tafovutlarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarning ahamiyati beqiyosdir. Mazkur maqolada aynan shu yo'nalishda O'zbekiston xalq ta'limi tizimidagi o'zgarishlar, ularning sabablari hamda istiqboldagi rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimini isloh qilish, xalq ta'limini rivojlantirish va inson kapitaliga investitsiya sifatida yondashuvni shakllantirish bo'yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jahon miqyosida ta'lim sohasidagi islohotlar, xususan, xalqaro tashkilotlar (UNESCO, OECD, World Bank) tomonidan ilgari surilgan "barqaror ta'lim tizimi", "inklyuziv ta'lim", "ta'limda raqamli transformatsiya" kabi konseptual yondashuvlar O'zbekiston ta'lim siyosatining ham asosiy yo'nalishlariga aylangan"[1].

O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini isloh qilish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining soni, sifati va hududiy taqsimoti, o'qituvchilar va o'quvchilar tarkibi, shuningdek, nodavlat ta'lim muassasalarining o'sish dinamikasi muhim o'rinni egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 2010–2023 yillar oralig'ida respublika bo'yicha umumta'lim muassasalari soni shahar joylarda 7,3 foizga, qishloq joylarda esa 11,1 foizga oshgan. Ayniqsa, nodavlat umumta'lim muassasalari soni 2016–2024 yillar oralig'ida 11 barobar ko'paygani (26 tadan 295 tagacha) ta'lim sohasidagi davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarining samaradorligini ko'rsatadi.

Xalq ta'limi tizimining ilmiy-nazariy asoslari, asosan, "Inson kapitali nazariyasi"[2], "Ta'limning iqtisodiy modeli"[3], hamda "Sotsial investitsiya konsepsiyasi"[4], bilan bog'liq bo'lib, bu yondashuvlar ta'limni milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanish omili sifatida ko'radi. Mazkur nazariyalar asosida ishlab chiqilgan yondashuvlar O'zbekiston ta'lim siyosatida ham aks etgan — "O'zbekiston–2030 strategiyasi", "Raqamli ta'lim" dasturi va "Inson kapitalini rivojlantirish konsepsiyasi" shular jumlasidandir. Statistik ma'lumotlarga tayangan holda, 2023-yilga kelib umumta'lim muassasalarida 548,5 ming nafar o'qituvchi faoliyat yuritayotgani, bu esa 2010-yilga nisbatan 28,6 foiz o'sishni bildiradi. Shu bilan birga, o'qituvchilar sonining hududiy nomutanosibligi, Toshkent shahri va Samarqand viloyatlarining yuqori ko'rsatkichlari, Qoraqalpog'iston va ayrim viloyatlarda esa nisbatan past o'sish sur'atlari qayd etilgan. Bu holat ta'lim resurslarining territorial teng taqsimlanmasligi muammosini ko'rsatadi.

Nodavlat ta'lim sektori o'sishining iqtisodiy va ijtimoiy tahlillari (Karimov, 2022; Qodirova, 2023) ta'lim tizimining diversifikatsiyasi jarayonida muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Jumladan, nodavlat maktablarning rivojlanishi davlat ta'lim tizimidagi yuklamani kamaytiradi, o'qituvchilarning bandlik darajasini oshiradi va ta'limda raqobat muhiti shakllantiradi[5.6]. Shuningdek, xalq ta'limi tizimini moliyaviy boshqaruv nuqtai nazaridan o'rganish bo'yicha olib borilgan ishlarda "...ta'lim sohasini moliyalashtirishda davlat va nodavlat manbalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi"[7]. Bu esa ta'lim tizimining barqarorligi va inson kapitaliga investitsiyalar samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining 2010–2023-yillar oralig'idagi xalq ta'limi tizimi holati statistik va tahliliy usullar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar manbasi sifatida Davlat statistika qo'mitasi, Xalq ta'limi vazirligi hamda rasmiy ochiq ma'lumotlar bazalaridan olingan ko'rsatkichlardan foydalanildi. Tadqiqotda ta'lim muassasalari sonining o'sish dinamikasi, hududlar bo'yicha taqsimoti, o'quvchilar va o'qituvchilar soni, shuningdek nodavlat umumta'lim muassasalarining rivojlanish tendensiyalari solishtirma tahlil usuli orqali baholandi.

Tahlil jarayonida trend tahlili, foizli o'sish ko'rsatkichlari, hamda taqqoslama dinamik indekslar qo'llanildi. Shuningdek, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar demografik omillar, iqtisodiy islohotlar va davlat siyosatidagi ustuvor yo'nalishlar bilan o'zaro bog'liq holda talqin qilindi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli yondashuv, empirik tahlil metodlari tanlandi. Ushbu yondashuvlar orqali xalq ta'limi tizimining rivojlanish tendensiyalari aniqlanib, hududlar o'rtasidagi tafovutlar va o'sish omillari ilmiy asosda baholandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining so'nggi yillarda qabul qilgan ta'limga oid qaror va farmonlari xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish, uning sifat ko'rsatkichlarini xalqaro standartlarga yaqinlashtirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval Umumta'lim muassasalari soni (shahar hududlarda, birlik)¹

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023/2010 foizda
O'zbekiston Respublikasi	3836	3784	3796	3741	3775	3701	3704	3706	3738	3861	3893	3921	3951	4117	107,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	241	215	213	212	211	198	199	201	202	223	225	227	236	246	102,1
Andijon viloyati	356	353	355	360	362	359	355	356	360	377	378	347	356	357	100,3
Buxoro viloyati	179	177	177	187	187	190	190	190	193	195	197	206	224	223	124,6
Jizzax viloyati	161	160	160	161	162	152	153	154	154	161	164	164	166	177	109,9
Qashqadaryo viloyati	370	370	370	353	351	341	339	340	340	349	352	358	376	418	113,0
Navoiy viloyati	115	115	115	114	114	113	112	110	111	117	119	120	129	128	111,3
Namangan viloyati	356	356	355	340	339	331	340	340	347	358	364	370	358	403	113,2
Samarqand viloyati	364	364	384	387	385	357	356	356	358	375	377	383	377	387	106,3
Surxondaryo viloyati	275	279	279	304	305	302	300	297	299	310	313	318	325	336	122,2
Sirdaryo viloyati	88	85	83	85	91	88	89	89	88	91	93	96	100	107	121,6
Toshkent viloyati	360	356	355	338	335	336	336	334	343	333	332	336	310	313	86,9
Farg'ona viloyati	452	449	448	392	423	422	420	417	421	438	428	436	438	423	93,6
Xorazm viloyati	193	190	190	188	187	188	188	188	178	179	190	192	171	170	88,1
Toshkent shahri	326	315	312	320	323	324	327	334	344	355	361	368	385	429	131,6

¹ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shu bilan birga, statistik ma'lumotlarni zamonaviy metodlar asosida tahlil qilish orqali mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni hal etish yo'llarini ishlab chiqish bugungi kun ta'lim sohasidagi muhim masalalardan biridir. Bu borada umumta'lim muassasalarining o'sish dinamikasi, hududiy tafovutlar, pedagogik kadrlar bilan ta'minlanish darajasi kabi ko'rsatkichlarning ilmiy asosda taqqoslanishi, tizimli yondashuvni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasida umumta'lim muassasalari soni shahar hududlarida 2023-yilda 4117 tani tashkil qilib, 2010-yilga nisbatan 7,3 foizga oshgan. Toshkent shahri umumta'lim muassasalari soni Respublika bo'yicha eng ko'p ko'rsatkichga ega bo'lib, 2023-yilda 429 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2010-yildagi Toshkent shahridagi umumtalim muassasalari sonidan 103taga (31,6 foizga) ko'payganini ko'rsatadi.

2-jadval Umumta'lim muassasalari soni (qishloq hududlarda, birlik)²

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023/2010 foizda
O'zbekiston Respublikasi	5970	5967	5956	6017	5958	6019	6015	6012	6044	6229	6288	6368	6571	6633	111,1
Qoraqalpog'iston Respublikasi	513	524	523	508	497	500	506	506	506	506	508	507	510	506	98,6
Andijon viloyati	386	387	387	385	382	384	387	387	388	400	401	442	450	455	117,8
Buxoro viloyati	360	357	357	348	347	347	347	346	346	353	354	357	353	360	100
Jizzax viloyati	393	388	386	385	383	389	390	390	390	394	394	399	410	408	103,8
Qashqadaryo viloyati	746	744	748	769	771	783	786	783	783	792	803	817	844	838	112,3
Navoiy viloyati	246	244	244	242	241	242	242	246	247	250	249	252	245	251	102,0
Namangan viloyati	333	332	333	350	349	355	347	347	349	360	362	360	384	363	109,0
Samarqand viloyati	861	862	848	848	845	867	865	864	867	885	894	902	933	936	108,7
Surxondaryo viloyati	576	575	578	556	553	559	560	558	571	610	621	620	628	651	113,0
Sirdaryo viloyati	216	216	216	217	209	211	210	209	213	221	223	225	227	230	106,4
Toshkent viloyati	531	529	528	541	542	541	535	536	531	559	562	561	597	604	113,7
Farg'ona viloyati	470	470	469	527	497	499	498	503	505	522	546	551	588	620	131,9
Xorazm viloyati	339	339	339	341	342	342	342	337	348	377	371	375	402	411	121,2

Aksincha 2023-yilda Toshkent viloyatidagi umumta'lim muassasalari soni esa 2010-yilga nisbatan 11,9 foizga kamaygan. Respublikamizning shahar hududlarida umumta'lim muassasalarining eng kam o'zgarish ko'rsatkichi Andijon viloyatida kuzatilgan. Unga ko'ra 2010-yilda umumta'lim muassasalar soni 356 tani tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilda 357tani tashkil qilgan. Bu esa 2023-yildagi umumta'lim muassasalar soni 2010-yilga nisbatan 0,3 foizga oshganini ko'rsatadi. Respublikamiz eng katta hududga ega viloyatlaridan biri Navoiy viloyatining shahar hududlarida 2010-yildan 2017-yilgacha umumta'lim muassasalarining soni keskin kamaygan. 8 yil ichida umumta'lim muassasalar soni 5 taga ya'ni 4,3 foizga kamaygan. O'zbekiston Respublikasida umumta'lim muassasalari soni qishloq hududlarida 2023-yilda 6633 tani tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2010-yildagi qishloqlardagi umumta'lim muassasalari sonidan 11,1 foizga oshgan. 2023-yilga kelib eng yuqori o'zgarishn ko'rsatkichi Farg'ona viloyati qishloqlarida kuzatilgan. Unga ko'ra 2023- yilda 2010-yilga nisbatan umumta'lim muassasalari sonining farqi 150 tani tashkil etganini ko'rishimiz mumkin, yillar kesimida

² Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

umumta'lim muassasalarining foizlardagi farqi 14 yil ichida 31,9 foizga oshgan. 2010-yildan 2023-yilgacha vaqt oralig'ida Respublikamiz viloyatlarining hududlarida joylashgan qishloqlarda umumta'lim muassasalari sonining kamayishi faqatgina Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloqlarida kuzatilgan. 2010-yilga umumta'lim muassasalar soni 513 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib 506 tani tashkil etgan va 1,4 foizga kamaygan.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida xalq ta'limi tizimining asosiy tayanchi — o'qituvchilarning kasbiy salohiyati, malakasi va mehnat sharoitlari davlat ta'lim siyosatining strategik yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar — yosh avlodni ma'naviy-axloqiy, ilmiy hamda texnologik jihatdan yetuk kadrlar qilib tarbiyalashda hal qiluvchi o'ringa ega.

Shu bois ta'lim sifatini oshirish, ilg'or pedagogik yondashuvlarni joriy etish, innovatsion metodlar asosida o'quv jarayonini tashkil etish bevosita o'qituvchining kasbiy kompetensiyasi va shaxsiy fazilatlariga bog'liqdir. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan davlat dasturlari, jumladan, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasidagi vazifalar umumta'lim muassasalari o'qituvchilari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning malakasini oshirish, moddiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan. Shu bilan birga, o'qituvchilar soni, ularning hududiy taqsimoti, yoshi, jinsiy tarkibi, malaka darajasi, ixtisosligi kabi statistik ko'rsatkichlarni chuqur tahlil qilish ta'lim tizimidagi resurslar va ehtiyojlar muvozanatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadval Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni (jami, kishi)³

Hudu nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023/2010 foizda
O'zbekiston Respublikasi	426581	419826	409831	397745	390574	394039	400033	419758	457758	501042	523312	529116	541473	548546	128,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	34127	33152	32158	30637	29841	30102	30514	31983	34209	36924	38616	38738	39117	39394	115,4
Andijon viloyati	33554	33219	31657	30541	31096	31345	31986	33452	36811	40961	42894	42966	44127	44353	132,2
Buxoro viloyati	26771	25471	24818	24004	23259	23657	24129	25311	26960	29166	30435	30500	31232	30930	115,5
Jizzax viloyati	18250	18242	17914	17632	17736	18059	18525	19159	21232	22905	23982	24044	24970	25023	137,1
Qashqadaryo viloyati	52694	52227	51043	49815	48038	46222	46177	47842	51737	55442	57578	58722	59718	61222	116,2
Navoiy viloyati	15928	15506	15485	15146	14983	15512	16124	17476	18980	20650	21280	21235	21414	21345	134,0
Namangan viloyati	28708	28708	28482	27576	28078	29083	29589	31227	33902	37255	39500	39650	40000	41178	143,4
Samarqand viloyati	50421	50464	49124	48975	46381	46346	46362	47165	51509	56533	59428	60564	62831	62409	123,8
Surxondaryo viloyati	38648	38675	38513	34605	33921	34142	34749	36597	39408	42818	44930	45639	47230	48363	125,1
Sirdaryo viloyati	9706	9387	9356	9438	9787	10121	10410	10848	12055	13133	13517	13718	14002	13607	140,2
Toshkent viloyati	30326	29058	28675	28173	27788	28118	28287	29347	32254	36397	37305	37375	38337	38480	126,9
Farg'ona viloyati	42272	41111	39115	38951	37341	37842	38859	42327	47182	52297	54350	54879	56562	57765	136,7
Xorazm viloyati	26489	26182	25448	25031	25040	25508	25794	27108	29061	31206	32337	33067	33324	34338	129,6
Toshkent shahri	18687	18424	18043	17221	17285	17982	18528	19916	22458	25355	27160	28019	28609	30139	161,3

O'zbekiston Respublikasida joylashgan umumta'lim muassasalarining jami o'qituvchilari soni 2023-yilda 548546 kishini tashkil etgan. 2010-yildan 2023-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida umumta'lim muassasalari o'qituvchilari soni aynan 2014-yil eng kam ko'rsatkichga ega

³ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

bo'lgan yil hisoblangan. 2014-yilda umumta'lim muassasalari soni 390574 kishini tashkil etgan, bu esa o'z o'rnida eng yuqori ko'rsatkich 2023-yildagi o'qituvchilar sonidan 40 foizga kam o'qituvchi faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Umumta'lim muassasalarining o'qituvchilari soni jihatidan eng yuqori o'sish ko'rsatkichi Toshkent shahrida ya'ni 30139 kishini ko'rsatgan va 2010-yilga nisbatan 61.3 foizni tashkil etgan. 2010-2023-yillar oralig'ida o'qituvchilar sonining eng kam o'zgarishini Qoraqalpog'iston Respublikasida ko'rishimiz mumkin, 2023-yildagi o'sish 2010-yildagi o'qituvchilar sonidan 15.4 foizni tashkil qilgan. Eng ko'p o'qituvchilar sonining ko'pligi bo'yicha peshqadam Samarqand viloyati hisoblanadi va 2023-yilda 62409 kishini tashkil etgan. Samarqand viloyati o'qituvchilari sonining 2010-2023-yillar oralig'idagi o'sish ko'rsatkichi Respublikada eng yuqori o'sishga ega bo'lgan Toshkent shahri o'qituvchilari o'sish ko'rsatkichidan 37.5 foizga kamligi kuzatilgan.

4-jadval Umumta'lim muassasalarida o'quvchilar soni (jami, kishi)⁴

Hudud nomi	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023/ 2010
Qoraqalpog'iston Respublikasi	255150	251269	248973	249467	254201	262209	270908	294683	326527	345197	353968	353302	363299	370829	145,3
Andijon viloyati	410273	395867	388294	387063	396486	410319	431635	482226	532804	558865	571792	574348	595863	612475	149,3
Buxoro viloyati	259555	254144	251801	249311	249329	253915	260536	284113	313558	327139	332865	326549	331615	337685	130,1
Jizzax viloyati	208057	203319	198951	199183	199228	203422	208357	225059	247270	258479	261262	261564	269198	275979	132,6
Qashqadaryo viloyati	500584	492155	477293	476389	477541	485693	495245	543468	601382	628887	639649	640356	657316	673058	134,5
Navoiy viloyati	132453	129109	126840	128082	131438	135705	140178	154797	171230	179405	182708	183734	187705	192069	145,0
Namangan viloyati	385592	374643	364521	359766	365156	381872	396689	426119	474252	501969	510571	512539	527504	549449	142,5
Samarqand viloyati	551783	533048	520057	523083	528454	544047	562838	612866	683519	722084	737797	747606	766856	789220	143,0
Surxondaryo viloyati	390224	380187	368227	363974	365383	373733	383376	422079	472269	496084	504318	510475	529351	549186	140,7
Sirdaryo viloyati	117446	115510	113698	114682	117038	120603	125248	134667	148793	156863	158623	156511	159105	162746	138,6
Toshkent viloyati	391767	379823	373535	370567	373566	383275	398103	430574	478988	510778	517837	509335	518515	532672	136,0
Farg'ona viloyati	508423	491210	480220	486206	486308	495562	510002	563312	627726	666505	680039	681723	690313	705336	138,7
Xorazm viloyati	266452	263524	262381	262337	268884	275867	282035	308896	341256	352958	358203	360661	365684	372159	139,7

2016-yildagi o'quvchilar sonining 2015-yildagi o'quvchilar soniga nisbati 153 289 nafarni ya'ni 2016-yilga kelib 3.3 foiz ko'payganligi kuzatilgan. 2022-yilda umumta'lim muassasalari o'quvchilarining soni 6 461 741 nafarni tashkil qilgan va 2023-yilda bu ko'rsatkich 2.8 foizga oshgan. 2010-yilda viloyat hududlari kesimida o'quvchilar soni nisbatan kam bo'lgan va 2023-yilga kelib sezilarli o'sish kuzatilgan. Masalan:

- **Samarqand:** 551 783 → 789 220 (+43%)
- **Andijon:** 410 273 → 612 475 (+49,3%)
- **Qashqadaryo:** 500 584 → 673 058 (+34,5%)
- **Farg'ona:** 508 423 → 705 336 (+38,7%)

Bunday o'sish aholining ko'payishi, maktab yoshidagi bolalar sonining ortishi, yangi maktablar qurilishi va ta'limga bo'lgan talab oshganligini ko'rsatadi.

⁴ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2023-yilda Respublikamizning viloyat hududlarida joylashgan umumta'lim muassasalari o'quvchilarining soni ko'pligi bo'yicha ham Samarqand viloyati yetakchilik qilgan va shu yili Samarqand viloyatida 789220 nafar o'quvchi tehsil olgan. Bu ko'rsatkich 2016-yilga nisbatan 40.2 foizga, 2018-yilga nisbatan 15.4 foizga hamda 2021-yilga nisbatan 5.5 foizga oshgan. 2010-2023-yillar mobaynida umumta'lim muassasalari o'quvchilari soning eng kam o'sishi Buhoro viloyatida kuzatilgan bo'lib, 259555 tadan 337685 taga o'zgargan va 30.1 foiz o'sishga ega bo'lgan[8.9].

Toshkent shahrida joylashgan umumta'lim muassasalarida tehsil olgan o'quvchilarning 2023-yildagi soni 522256 kishini tashkil ekan. 2023-yildagi o'quvchilarning soni 2010-yilga nisbatan 64.4 foizga oshgan. Toshkent shahri umumta'lim muassasalari o'quvchilari soni yillik o'sish ko'rsatkichlar ichida 2018-2019-yillarda eng katta o'sish kuzatilgan va 2019-yilda 2018-yilga nisbatan 7.3 foizga oshgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida 2016-yildan boshlab nodavlat umumta'lim muassasalarining soni bosqichma-bosqich ortib borgan. Agar 2016-2017 o'quv yili holatiga ko'ra butun respublika bo'yicha atigi 26 ta nodavlat maktab faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-2024 o'quv yilida ularning soni 295 taga yetgan. Bu deyarli 11 baravar o'sishni anglatadi.

5-jadval Nodavlat umumta'lim muassasalari soni (birlik)⁵

Hudud nomi	2016/ 2017	2017/ 2018	2018/ 2019	2019/ 2020	2020/ 2021	2021/ 2022	2022/ 2023	2023/ 2024
O'zbekiston Respublikasi	26	39	58	91	102	135	194	295
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0	0	0	0	0	2	3	4
Andijon viloyati	0	1	1	7	7	16	23	27
Buxoro viloyati	0	0	2	4	4	14	16	25
Jizzax viloyati	1	0	0	4	4	5	5	7
Qashqadaryo viloyati	0	0	1	3	2	2	3	15
Navoiy viloyati	0	0	0	0	1	1	2	3
Namangan viloyati	2	2	7	11	13	12	15	27
Samarqand viloyati	2	5	7	10	9	13	22	31
Surxondaryo viloyati	0	0	0	0	0	2	2	4
Sirdaryo viloyati	0	0	0	0	0	1	4	9
Toshkent viloyati	0	0	0	0	0	3	7	14
Farg'ona viloyati	3	6	9	12	22	23	35	55
Xorazm viloyati	2	2	2	9	8	10	13	15
Toshkent shahri	16	23	29	31	32	31	44	59

Xususiy sektorning ta'lim tizimida bunday jadal rivojlanishi, avvalo, davlat tomonidan berilgan erkinliklar, litsenziyalash tartibining soddalashtirilishi va xususiy investitsiyalarning rag'batlantirilishi natijasi bo'lib xizmat qilgan. Ayniqsa, so'nggi 3 yilda (2021–2024) bu o'sish yanada tezlashgan, bu davrda maktablar soni qariyb 160 taga oshgan. Bu holat aholining nodavlat maktablarga bo'lgan talabining ortganini, shuningdek, davlat ta'lim tizimining yuklamasini pasaytirishga qaratilgan siyosiy yondashuvni ifodalaydi.

Hududlar kesimida esa nodavlat maktablar soni bo'yicha Toshkent shahri (59 ta), Farg'ona viloyati (55 ta), Samarqand viloyati (31 ta) kabi hududlar yetakchi o'rinda turadi. Ushbu

⁵ Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

hududlarda aholining to'lov qobiliyati nisbatan yuqori bo'lishi, nodavlat ta'limga bo'lgan ishonch va talab ortganini ko'rsatadi. Boshqa viloyatlarda, xususan, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo kabi hududlarda 2016–2020 yillarda deyarli nodavlat maktablar mavjud emas edi. Biroq, 2020 yildan keyin bu hududlarda ham sezilarli o'sish boshlandi. Bu holat davlat tomonidan hududiy tenglikni ta'minlash va nodavlat sektorni har bir mintaqada qo'llab-quvvatlash siyosati samarasini bildiradi.

Shunday qilib, nodavlat umumta'lim muassasalarining son jihatidan o'sishi – ta'lim sohasida davlat va xususiy sektor hamkorligining mustahkamlanayotganini, aholining diversifikatsiyalangan ta'lim xizmatlariga bo'lgan talabining ortayotganini ko'rsatadi[10.11]. Bu raqamlar O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining o'rnini tobora mustahkamlab borayotganini, ularning ta'lim tizimidagi hissasi ortib borayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, aholisi zich bo'lgan hududlarda nodavlat maktablar o'quvchi oqimini kamaytirish, muqobil sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyojni qondirishda muhim ro'l o'ynayapti.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2010–2023-yillar mobaynida O'zbekiston xalq ta'limi tizimida umumta'lim muassasalari, o'qituvchilar va o'quvchilar sonida barqaror o'sish kuzatildi. Shu davrda maktablar soni 7,3 %, o'qituvchilar 28,6 %, o'quvchilar esa 48 % ga ortdi. Ayniqsa, 2016-yildan keyingi davrda o'quvchilar sonining keskin ko'payishi ta'lim tizimining kengayib borayotganini ko'rsatadi. Nodavlat umumta'lim muassasalari soni 2016–2024-yillar oralig'ida 26 tadan 295 taga, o'quvchilar soni esa 7,6 barobarga oshgani mamlakat ta'lim tizimining diversifikatsiyalashayotganini tasdiqlaydi. Bu esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning kuchayishi hamda aholining muqobil sifatli ta'limga bo'lgan ehtiyoji ortganini bildiradi.

Umuman olganda, xalq ta'limi tizimining miqdoriy o'sishi bilan bir qatorda, sifat ko'rsatkichlarini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini rivojlantirish va hududlar bo'yicha ta'lim imkoniyatlaridagi tafovutlarni kamaytirish istiqboldagi muhim vazifalar sifatida belgilangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNESCO (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in Education – A Tool on Whose Terms?
2. Becker, G. S. (1964). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. University of Chicago Press.
3. Schultz, T. W. (1971). Investment in Human Capital. The Free Press.
4. Heckman, J. J. (2006). Skill Formation and the Economics of Investing in Disadvantaged Children. Science, 312(5782), 1900–1902.
5. OECD (2022). Education at a Glance 2022: OECD Indicators. Paris: OECD Publishing.
6. Toshpo'latov, S. (2020). Ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda iqtisodiy mexanizmlar va boshqaruv tamoyillari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.
7. Qodirova, N. (2023). Nodavlat ta'lim muassasalarining iqtisodiy roli va rivojlanish istiqbollari. Oliy ta'lim muammolari jurnali, №2.

-
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2023-yil 11-sentabr.
 9. Abdurahmonov, A. (2021). Xalq ta’limi tizimini moliyalashtirishning iqtisodiy mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
 10. Karimov, B. (2022). Ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikning rivojlanish yo‘nalishlari. Innovatsion ta’lim jurnali, №4.
 11. Toshpo‘latov, S. (2020). Ta’lim tizimini modernizatsiya qilishda iqtisodiy mexanizmlar va boshqaruv tamoyillari. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti nashriyoti.